

- ишончилилик ва ахборотнинг тўлиқлиги;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мос келиш;
- ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланиш;
- хўжалик юритувчи субъект бўлимларини мўйян мақсадга эргаштириш.

Ички назорат тизимини баҳолашнинг мақсади аудиторлик текшируви даври ва кўламини тўғри белгилаб олиш ҳисобланади. Айнан ички назорат тизимига тўғри баҳо бериш орқали хўжалик юритувчи субъект фаолиятини текшириш дастури тўғри белгиланиши мумкин. Бундан ташқари ички назорат тизимига баҳо бериш ёрдамида аудиторлик ташкилоти хўжалик юритувчи субъект фаолиятини такомиллаштириш бўйича маслаҳат бериши мумкин.

Текширув вақтида аудитор мос келадиган аудиторлик амалларининг моҳияти, кўлами ва унга сарфланган харажатларни аниқлаш учун назорат воситаларини ўрганиши ва тўғри баҳолаши мақсадга мувофиқдир. Алоҳида таъкидлаш жоизки, ички назорат тизимининг кўлами ва хусусиятлари, шунингдек, унинг шаклланиш даражаси хўжалик юритувчи субъектнинг кўлами ва унинг фаолияти хусусиятларига мос келиши зарур.

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни. www.lex.uz
2. Seyed Mahmoud Hosseinniakani, Helena Inacio, Rui Mota. A Review on Audit Quality Factors. //International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences Vol. 4, No.2, April 2014, pp. 243–254
3. Khansa Shahibah, Bambang Hariadi, Zaki Baridwan. The effect of quality control system on audit quality: Professional skepticism as the moderator variable. //International journal of research in business and social science 9(4)(2020) 419-425
4. Шешукова Т.Г., Городилов М.А. Аудит: теория и практика применения международных стандартов: Учеб. пособие. - 2-е изд., доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 184 с.
5. Жарылгасова Б.Т., Суглобов А.Е. Международные стандарты аудита. Учебное пособие.-3-е изд. –М.: КНОРУС, 2007. -400 с.
6. Вахобов А.В., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.Қ. Тижорат банклари ташқи аудитида халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методологияси. Монография. – Т.: Молия, 2011. -188 б.



AVTOMOBIL TARANSPORTI KORXONALARI XARAJATLARINI HISOBGA OLIHDA ULAR TASNIFLANISHINING AHMIYATI

G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich -

Farg'ona politexnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini

katta o'qituvchisi

[doi:https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a21](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a21)

Annotatsiya: Maqolada avtomobil transporti korxonalari, xarajatlar, avtomobil transport korxonasi xarajatlari, xarajatlarni tasniflanishi, xarajat moddalari, xarajat elementlari, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar, bevosita va bilvosita xarajatlar, xarajatlarni tan olish, avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xarajatlarni hisobga olishda ularning tasniflanishining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil transporti, xarajatlar, xarajatlarning tasniflanishi, xarajatlar hisobi, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

ЗНАЧЕНИЕ КЛАССИФИКАЦИИ В УЧЕТЕ ЗАТРАТ АВТОМОБИЛЬНЫХ
ТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

*Ганибаев Илхомжон Шокиралиевич -
Старший преподаватель кафедры
“Бухгалтерский учет и аудит”
Ферганского политехнического института*

Аннотация: В статье представлены предприятия автомобильного транспорта, затраты, расходы автотранспортного предприятия, классификация затрат, статьи расходов, элементы затрат, переменные и постоянные затраты, прямые и косвенные затраты, признание затрат, стоимость услуг, оказываемых на предприятиях автомобильного транспорта, калькуляция себестоимости продукции, управленческий учет, международные стандарты финансовой отчетности, освещается значение их классификации в учете затрат.

Ключевые слова: автомобильный транспорт, расходы, классификация расходов, учет затрат, себестоимость оказанных услуг, управленческий учет, международные стандарты финансовой отчетности.

THE IMPORTANCE OF CLASSIFICATION OF AUTOMOBILE TRANSPORT
ENTERPRISES IN CALCULATING COSTS

*G'anibayev Ixomjon Shokiraliyevich -
Senior lecturer of the Department of Accounting
and audit of Fergana Polytechnic Institute*

Annotation: the article covers the cost of automobile transport enterprises, costs, costs of a car transport enterprise, classification of costs, cost items, cost elements, variable and fixed costs, direct and indirect costs, cost recognition, cost of services provided at automobile transport enterprises, cost calculation of products, management accounting, international financial reporting stations, the importance of their classification in cost accounting.

Keywords: automobile transport, cost, cost classification, cost accounting, cost of services rendered, management accounting, International Financial Reporting Standards.

Kirish. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakat taraqqiyoti xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi aholiga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va ularning daromadlarini oshirish hamda aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur sohani rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy etishiga, milliy daromadni o'sishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida transport xizmatini ko'rsatish tarmog'i asosiy va eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. U mahsulot ishlab chiqarish uzluksizligini va aylanishini ta'minlaydi, aholini transport xizmatiga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 35 247,4 mlrd. so'mga teng bo'lib shundan, transport xizmatlarining 54,1 foizi avtomobil transporti, 12,9 foizi havo transporti, 12,0 foizi temir yo'l transporti, 11,1 foizi quvur transporti va 9,9 foizi yordamchi transport xizmati hissasiga to'g'ri keladi. Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti xizmatlari ulushida yo'lovchi avtotransport xizmatlarining ulushi 58,4 % ga, yuk tashish avtotransport xizmatlarining ulushi 41,6 % darajasida qayd etildi.

2022-yilning yanvar-iyun oylari davomida tashilgan yuklarning 89,8 foizi, tashilgan yo'lovchi-

larni 97,6 foizi avtomobil transporti hissasiga to'g'ri keladi[13].

Mamlakatimiz geografik joylashuv jihatidan markaziy osiyoda joylashganligi, dengiz va okeanlarga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmaganligi sababli yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari asosan avtomobil transport korxonalarini tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida, mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish ko'lamini kengayishi, aholini o'sishi avtomobil transporti xizmatlariga bo'lgan talabni o'sishiga olib keladi. Bu o'z navbatida avtomobil transporti xizmatlari sifatini oshirish, mazkur soha korxonalarini yangi, zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash va ularga texnik xizmatlar ko'rsatish saviyasini oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq avtomobil transporti – tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochmani avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui tushuniladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va bu jarayon hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Avtomobil transporti korxonalarini rivojlantirishda, ularning moliyaviy barqarorligini ta'min-

lashda hisob ishlarini to'g'ri tashkil etish, foydalanuvchilar va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berish, daromad va xarajatlarni o'z vaqtida to'g'ri tan olish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarida ma'lum turdagi va me'yordagi xarajatlarni amalga oshirmasdan mahsulot tayyorlash mumkin bo'lmaganidek, avtomobil transporti korxonalarida ham xizmat ko'rsatish jarayonini xarajatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Avtomobil transporti korxonalaridan tomonidan xizmatlar ko'rsatish jarayonida xizmat ko'rsatish, korxonaning boshqarish bilan bog'liq sarf va xarajatlar amalga oshiriladi.

Xarajatlar Z.N.Qurbonovni ta'kidlashicha "Ko'pchilik insonlarning fikriga ko'ra, xarajatlar sarflarga o'xshab ketadi. Lekin aslida sarflar bu xarajat emas. Sarf deganda aktivlarning resurslardan boshqa bir aktivlarni paydo qilish uchun ishlatish tushuniladi. Boshqa tomondan, xarajatlar bu ma'lum bir muddat ichida foyda olish uchun resurslardan foydalanishdir. Garchi xarajatlar mahsulotni o'lchashda ishlatilmasada, ular xarajat, davr xarajatlari deb tan olinadi" [1, 433-bet].

Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir. Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zaxiralari, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo'ladi [2, 38. 57-bandlar].

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni tasniflash, hisobga olish, boshqarish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasida ko'plab xorijiy olimlar, jumladan, D.Ch.Gorrison, J.Kluk, B.Elliton, E.Arens, X.Anderson, B.Nidlz, A.Sheremet, V.A.Bakayev, I.N.Xvatalova, A.A.Korolev, A.A.Petuxov, T.B.Kalinina, A.I.Potaskayeva, I.G. Txarkaxova hamda respublikamiz olimlari: K.B.Urazov, R.D.Do'smuradov, A.A.Karimov, M.B.Kalonov, A.K.Ibragimov, M.M.To'laxo'djayeva, B.A.Xasanov, S.K.Qodirxonov, N.Jo'rayev, T.Jo'rayev, A.Sotvoldiyev va boshqalar olimlar o'zlarining hissalarini qo'shganlar va bu boradagi ilmiy izlanishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) deganda avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) tushuniladi. M.B.Kalonovni fikricha "Avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmining pul birligidagi qiymati mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o'z aksini topadi. Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning xarakterli jihatlari-

dan biri shundaki, ular bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi, ya'ni hisobot davri davomida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga qilingan barcha sarf-xarajatlar shu hisobot davrida ushbu ish (xizmat)lar tannarxi sifatida tan olinadi va hisobdan chiqariladi" [3, 58-bet].

Xarajatlarni ta'sniflanishi bo'yicha K.B. Urazovning ilmiy adabiyotlaridagi fikriga ko'ra, korxonalar xarajatlarini moliyaviy hisobotni yuritish va hisobotni tuzishda qo'llaniladigan tasnifiy jihatlari ularning rejalashtirish va nazoratni olib borish, shuningdek, ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Ushbu maqsadga erishish uchun, boshqaruv hisobida korxonalar xarajatlarini, chunonchi ishlab chiqarish xarajatlarini qo'shimcha tarzda tegishliliga, ishlab chiqarish xajmining ta'siriga, muqobilligiga, nazorat qilishni imkoniga, me'yoranlashiga, relevantligiga va differentsiyalanishiga ko'ra tasniflash ham o'ta muhimdir [4, 59-b].

Xarajatlarni hisobga olish avtotransport sohasidagi buxgalteriya tizimining murakkab qismlaridan biri hisoblanadi, chunki uni hisobini shakllantirishda avtotransport faoliyatini boshqarish, texnologiyasi va tashkil etishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish kerak. I.G. Txarkaxovning ta'kidlashicha "Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflanishi - bu xarajatlarni texnologik maqsadlar va iqtisodiy tarkib bo'yicha guruhlash, avtomobil transporti korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida ish, xizmatlar tannarxini shakllantirishni boshqarish imkonini beradi" [5, 263-bet].

M.B.Kalonovning "O'zbekiston Respublikasida transport xizmatlarini rivojlanish istiqbollari va xarajatlar hisobining nazariy asoslari" mavzusidagi ilmiy maqolasida xorijiy ilmiy tadqiqotlarda avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni guruhlash bo'yicha bir qator ilmiy ishlanmalar mavjudligi, ular asosida o'z fikr mulohazalarini bildirganligini, jumladan, A.Kudelskaya, N.Belozertsevalar avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lganligini ta'kidlab o'tgan [6, 2-bet].

T.B.Kalininaning ta'kidlashicha avtotransport korxonasida xarajatlarni hisobga olishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning ilmiy asoslangan tasnifi mavjudligi katta ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, amaliy nuqtayi nazardan eng ko'p qo'llaniladigan buxgalteriya funksiyalarini bajarish jarayonida xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan, bevosita va bilvosita, shuningdek boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida relevant va norelevantga bo'linishi-dir [7, 141-bet].

Avtomobil transporti korxonalarida transport xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar xizmatlar tannarxiga to'g'ridan to'g'ri va qayta taqsimlash orqali olib boriladi. K.B.Urazovni fikricha "Avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mum-

kin. Ishlab chiqarish turiga ko'ra avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari asosiy, yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlariga bo'linadi. Avtotransport korxonalarining umumishlab chiqarish xarajatlari bo'lib ularni gaz, suv, elektr quvvati va par bilan ta'minlash, avtomobil transporti vositalarti qo'riqlash, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'linmalarining xarajatlari hisoblanadi" [8, 325-bet].

M.B.Kalonovning "Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish" (avtotransport korxonalari misolida) iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatida "Xarajatlar hisobini yanada aniqroq, guruhlarga ajratgan holda yuritish maqsadida, mazkur yirik guruh xarajatlari tarkibini ular tashkil topishi iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantirish maqsadga muvofiqdir" deyilgan [9, 20-bet].

A.I.Potaskayevani fikricha ishlab chiqarish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini shakllantirish ishlab chiqarish, texnik va yo'nalishli xizmatlarning tezkor boshqarish, yo'nalishdagi transportni nazorat qilish va ularni ishlab chiqarishga tayyorlash bilan bog'liq [10, 54-bet].

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni elementlari bo'yicha guruhlash, korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida moddiy, mehnat va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni ularning turlari bo'yicha haqiqiy sarfini aniqlash imkonini beradi, xarajatlarni xarajat elementlari bo'yicha guruhlash zarurati bo'yicha I.N. Lavrikov o'zining ilmiy adabiyotlarida quyidagicha fikr bildirgan "Xarajatlar elementlari bo'yicha guruhlash korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning haqiqiy sarflanishini aniqlash hamda avtomobil transportida tashish, ekspeditorlik yordami bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) bajarish uchun ushbu resurslarga bolgan ehtiyojni aniqlash uchun zarurdir" [11, 64-bet].

Xarajatlarni to'g'ri tasniflanishi avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilinishiga va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlash jarayonini yengillashtirishgan hamda korxonalarining pirovard natijasi foyda va zararni yuqori aniqlikda aniqlashda katta ahamiyatga ega.

I.V. Gelyutaning ta'kidlashicha "Ko'psatilgan xizmatlar tannarxini obyektiv baholanishiga ko'p jihatdan transport korxonasi byudjetining xarajatlar komponentlari bo'lgan moddiy, energiya, mehnat va moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liq" [12, 109-bet].

Biroq bugungi kuchli raqobat muhiti va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida avtomobil transporti korxonalarida ham boshqa tormoq korxonalari qatori, raqobatga bardosh berish, kelajakda korxonalar faoliyatini kengaytirish, modernizatsiya qilish va qayta jihozlash mazkur korxonalar faoliyatidan olinayotgan daromadlar xajmiga hamda yakuniy

ntijasi bo'lgan foydaga bog'liq. Korxonaning foydasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu korxonaning faoliyatiga doir amalga oshirilgan xarajatlari hisoblanadi.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni to'g'ri tasniflash, xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish, xarajatlarni haqqoniy aks ettirish, xarajatlar va daromadlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari mezonlari asosida tan olinish bugungi kunda buxgalteriya xizmati xodimlari oldiga qo'yilgan asosiy vaziflardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlari, ularning tasniflanishi va buxgalteriya hisobida hisobga olishga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarni, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, xarajatlar tasniflanishini tahlil qilish, aniqlashtirish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash, muqobilini tanlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar guruhlarini 1-jadval asosida quyidagicha tasvirlash mumkin.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlari hisobini tashkil etish murakkab jarayon hisoblanib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanib boshqaruv hisobini buxgalteriya hisobidan ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini tizimlashtirish, xarajatlarni xarajat elementlari va moddalari hamda turli belgilari bo'yicha bo'yicha guruhlarga ajratish, xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari me'zonlari asosida tan olish, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlash, xarajatlardan samarali foydalanish darajasini tahlil qilish, samarasiz xarajatlarni kamaytirish va ularni amalga oshirmaslik choralarini ko'rish muhim ahamiyatga egadir.

Avtomobil transporti korxonalarida yuk va yo'lovchilarni tashish tannarxini tashkil etadigan xarajatlar tarkibi, iqtisodiy mazmuni, transport xizmatlarini amalga oshirishdagi roli jihatidan farq qiladi. Yuqoridagilarni inobatga olib ular elementlari, moddalari va boshqa guruhlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tavsiflanadi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar guruhlarini tavsiflashi

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	1) bevosita moddiy xarajatlar
	- avtomobil yoqilg'isi
	- moylash materiallari
	- ehtiyot qismlar
	- avtomobil shinalarini ta'mirlash va ekirish xarajatlari
	- avtomobil akkumlyatorlari
	- xo'jalik inventarlari
	- boshqa materiallar
	2) bilvosita moddiy xarajatlar
	- asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi yordamchi ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar.
- umumishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish xarajatlari, berilgan inventarlar qiymati va boshqa moddiy xarajatlar.	
b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari	1) bevosita mehnat xarajatlari
	- haydovchilar va konduktorlarga hisoblangan ish haqi
	- haydovchilar va konduktorlarning ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq summasi;
	2) bilvosita mehnat xarajatlari
	- asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi yordamchi ishlab chiqarish sexlari xodimlariga hisoblangan ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari.
- umumishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqi va ijtimoiy soliq summalari	
v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar	1) boshqa bevosita xarajatlar
	- xarakatdagi transport vositalarining amortizatsiyasi
	- xizmat ko'rsatish bilan bog'liq nomoddiy aktivlarni amortizatsiyasi
	- transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari
	- ijaraga olingan transport vositalarini ijara haqi
	- transport vositalarni va xodimlarni sug'urta qilishga doir xarajatlar
	2) boshqa bilvosita xarajatlar
	- umumishlab chiqarish ahamiyatidagi binolarni amortizatsiyasi
	- umumishlab chiqarish ahamiyatidagi mol-mulkni sug'urtalash xarajatlari
	- umumishlab chiqarish ahamiyatidagi maqsadida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga olish xarajatlari
- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	

Manba: muallif ishlanmasi.

Xarajatlarning mohiyatini eng chuqur bilish uchun va ularni boshqarish ehtimolini ta'minlash uchun xarajatlarni ma'lum bir xususiyatga ko'ra tasniflash talab etiladi. Xarajatlarni turlari bo'yicha doimiy ravishda tahlil va nazorat qilish ularning kelajakda xarajatlarni boshqarish uchun xarajatlar dinamikasini kuzatish, o'zgarish sabablarini aniqlashga yordam beradi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarini turli belgilari bo'yicha 2-jadvalda keltirilgan tartibda tasniflashimiz mumkin.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni tasniflash ko'rsatilgan xizmatlar turlari bo'yicha xarajatlar hisobini yo'lga qo'yish, bir hil turdagi xizmatlar xarajatlarini taqqoslash, rejalashtirilgan xarajatlarni belgilangan me'yorlar bo'yicha sarflana-yotganligini nazorat qilish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, shuningdek korxonada ichidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarurdir.

Xarajatlarni tasniflashning eng samarali guruhi xarajatlarni kalkulyatsion moddalar ro'yxati bo'yicha guruhlashdir. Xarajat moddalari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish ko'rsatilgan har bir xizmat turi bo'yicha alohida-alohida amalga oshiriladi. Xarajatlarni moddalar bo'yicha guruhlash bajarilgan

ish va ko'rsatilgan xizmatlar narxiga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita kiritilishi mumkin bo'lgan ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning eng katta taqsimlanishini ta'minlashi kerak. Xarajatlarni kalkulyatsion moddalari bo'yicha hisobga olishda har bir modda bo'yicha analitik xarajat guruhlarini yuritiladi, masalan, yoqilg'i bo'yicha yoqilg'ining turlari bo'yicha, ehtiyot qismlar bo'yicha ularning turlari bo'yicha va boshqalar.

Xarajatlarning iqtisodiy elementlar bo'yicha tasniflashi avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, uning yordami bilan korxonada faoliyatining ishi tahlil qilinadi, shu jumladan texnik darajasi, mehnat zichligi, mehnat unumdorligi aniqlanadi; tashkilotning asosiy va aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji belgilanadi. Biroq, xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlash mablag'lardan maqsadli foydalanishni ko'rsatmaydi. Shuning uchun xarajatlarni hisoblashda kalkulyatsion moddalar bo'yicha tasniflash qo'llaniladi.

Xizmatlarni yaratishda ishtirok etishiga ko'ra xarajatlar asosiy va yordamchi xarajatlarga bo'linadi. Asosiy xarajatlar avtomobil transporti korxonalariga xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq barcha xarajatlar kiritiladi.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarini turli belgilari bo'yicha tasniflashi

Kalkulyatsion moddalar bo'yicha	1) xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq xarajatlar
	- haydovchilar va konduktorlarga hisoblangan ish haqi
	- haydovchilar va konduktorlarning ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq;
	-avtomobil yoqilg'isi
	- moylash va boshqa materiallar
	-ehtiyot qismlar
	-avtomobil akkumlyatorlari
	- avtomobil shinalarini ta'mirlash va ekirish xarajatlari
	-transport vositalarining amortizatsiyasi
	- avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari
Xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra elementlari bo'yicha	- xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa xarajatlar
	2) umumishlab chiqarish xarajatlari
Xizmatlarni yaratishda ishtirok etishiga ko'ra	-moddiy xarajatlar
	-ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari
	-asosiy vositlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
Ko'rsatilgan xizmat xajmining ta'siriga ko'ra	-boshqa xarajatlar
	-asosiy xarajatlar
	-yordamchi (boshqaruv va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi) xarajatlar
	-o'zgaruvchan
Tannarxga kiritish usuli bo'yicha	-doimiy
	-shartli o'zgaruvchan
	-shartli doimiy
Tarkibiga qarab	-bevosita
	-bilvosita
Vujudga kelish joyiga qarab	-bir elementli
	-kompleks
Xarajatlarni tan olinish usuli bo'yicha	- tarkibiy bo'linmalar, uchastkalar, ustaxonalar va boshqalar
Rejalashtirishda qamrab olish imkoniga qarab	- ko'rsatilgan xizmat uchun sarflangan xarajatlar
	- davr xarajatlari
Nazorat qilinishi imkoniga ko'ra	-rejalashtirilgan
	-rejalashtirilmagan
Relevantligiga ko'ra	-nazorat qilish imkoni bor
	-nazorat qilish imkoni yo'q
	-relevant
	-norelevant

Manba: boshqaruv hisobiga oid manbalarni o'rganish asosida muallif ishlanmasi.

Jumladan, ish haqi, hisoblangan ijtimoiy soliq summasi, yoqilg'i va moylash materiallari, ehtiyot qismlar, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlar va boshqa xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar.

Yordamchi xarajatlar ishlarni bajarish va xizmatlarni taqdim etishning texnologik jarayoni bilan bevosita bog'liq emas, balki avtomobil transportida xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish, boshqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksiz va sifatli davom ettirishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar doirasida shakllanadi.


Ko'rsatilgan xizmat xajmining ta'siriga ko'ra xarajatlar o'zgaruvchan, doimiy, shartli o'zgaruvchilar va shartli doimiylarga bo'linadi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni bunday tasniflashi ularni ko'rsatayotgan xizmatlar tannarxiga ta'sirini tahlil qilish bu boshqaruv hisobining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'zgaruvchan xarajatlar ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan mutanosib ravishda o'zgaradi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Shartli o'zgaruvchilar xarajatlar bo'lib, ularning hajmi transport miqdoriga (hajmiga) bog'liq. Shartli ravishda doimiy xarajatlar bo'lib, ularning mutlaq hajmi bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga bog'liq emas yoki deyarli bog'liq emas. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy, shartli o'zgaruvchilar va shartli doimiy xarajatlarga bo'linishi quyidagi 1-chizmada berilgan.

Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlashda xarajatlarni xarajat elementlariga, xarajat moddalariga, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'lishdan tashqari, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita xarajatlarga tasniflash ham muhim ahamiyatga ega.

Bevosita xarajatlar-bu avtomobil transporti korxonasi tomonidan ko'rsatilgan xizmat turining tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri, asoslangan me'yor va standartlarga muvofiq olib boriladigan xarajat turlaridan iboratdir.



1-rasm. Avtomobil transporti korxonalarida ko'rsatilgan xizmat xajmining ta'siriga ko'ra xarajatlarning tasniflanishi

Manba: muallif ishlanmasi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, ta'rifiga ko'ra, mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) aniq turlariga, ya'ni avtotransportda tashish turlari bo'lgan hisob-kitob obyektlariga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan xarajatlardir. Bilvosita xarajatlar-bu to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritish imkoni bo'lmaydigan xarajatlar, ya'ni mazkur xarajatlar bir necha turdagi xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'ladi. Ular shartli bazaga mutanosib ravishda taqsimlash orqali muayyan xizmatlar tannarxiga kiritiladi. Biz bevosita va bilvosita xarajat turlarini 1-jadvalda keltirganmiz.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni tarkibiga qarab bir elementli va kompleks xarajatlarga bo'linadi, bir elementli xarajatlarga bir turdagi xarajatlar, masalan yoqilg'i, moylash materiallari, akkumliyator, shinalar va boshqalar kiradi. Kompleks xarajatlarga ikki va undan ortiq xarajat elementlaridan iborat bo'lgan xarajatlar kiradi, bunday xarajatlar avtomobil transportini ta'mirlash jaryonida bir vaqtning o'zida bir necha turdagi ehtiyot qismlarni sarflanishi misol bo'ladi.

Xarajatlarni vujudga kelish joyiga qarab guruhlariga ajratilishida, xarajatlar amalga oshirilgan obyekt asos qilib olinadi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar avtomobillarni saqlash joylari-

da, ustaxonalarda, yoqilg'i quyish shaxobchalarida va boshqa uchastkalarda vujudga kelishi mumkin.

Xarajatlarni tan olinish usuli bo'yicha xarajatlar ko'rsatilgan xizmat uchun sarflangan xarajatlar va davr xarajatlariga bo'linadi. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun sarflangan xarajatlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha ishlab-chiqarish xarajatlarini kiritiladi, davr xarajatlariga xizmatlarni realizatsiya qilish bilan bog'liq reklama xarajatlari, avtomobil transporti korxonalarini boshqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlar kiradi.

Rejalashtirishda qamrab olish imkoniyatiga qarab barcha xarajatlar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan xarajatlarga bo'linadi. Rejalashtirilgan xarajatlar-bu tashkilotning iqtisodiy faoliyatining xususiyatidan kelib chiqadigan va tashkilotning avtomobil transportidan foydalanish xarajatlari smetasida nazarda tutilgan muqarrar xarajatlardir. Rejalashtirilmagan xarajatlar-bu iqtisodiy jihatdan muqarrar bo'lmagan va tashkilotning normal iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqmaydigan samarasiz xarajatlar. Bu tashkilotning xarajatlar smetasiga kiritilmagan to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlar, saqlash paytida etkazilgan zararlar, ishlamay qolishdan yo'qotishlar va boshqa kutilmagan vaziyatlardan ko'rilgan zararlar kiradi.

Boshqaruv faoliyati tizimi orqali xarajatlar hisobini keng ma'noda tashkil etish uchun yuqorida ko'rsatilgan barcha xarajatlar transport turlari bo'yicha, bu xarajatlar tarkibini tahlil qilish, byudjetlashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ikkinchi darajali hisobga olish kerak. Boshqacha qilib aytganda, avtomobillar doirasida xarajatlarni hisobga olish ularni nazorat qilinadigan va nazorat qilib bo'lmaydigan xarajatlarga bo'linishiga yordam beradi va agar biz bir xil xarajatlar moddalarini transport turlariga yoki, aniqrog'i, hisob birliklariga nisbatan hisoblasak, bizning fikrimizcha, nazorat qilinadigan xarajatlar darajasini oshirish imkoniga ega bo'lamiz. Nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar nazorat maqsadlari uchun, tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Ichki buxgalteriya hisobida xarajatlarning yana bir muhim tasnifi ularning relevant va norelevant, ya'ni tegishli ravishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisobga olingan va hisobga olinmaydigan turlarga bo'linishidir.

Relevant xarajatlar deganda boshqaruv qarori asosida miqdori va darajasi kelgusida o'zgaradigan xarajatlar tushuniladi. Misol uchun boshqaruv qarori asosida avtomobil transporti korxonasida avtomobillarni benzindan suyultirilgan gaz ta'minotiga o'tkazish yoqilg'i sarfini o'zgarishiga olib keladi. Relevant xarajatlarni boshqachasiga bartaraf etilishi mumkin bo'lgan xarajatlar ham deb ataydilar.

Norelevant xarajatlar deganda qabul qilingan boshqaruv qarori ta'sirida miqdori va darajasi o'zgarmasdan qoladigan xarajatlar tushuniladi. Ularga misol tariqasida avtotransport uchun mol-mulk va sug'urta xarajatlarini keltirish mumkin. Chunki, ushbu xarajatlar avtomobillarni benzindan suyultirilgan gaz ta'minotiga o'tkazish bo'yicha boshqaruv qarori qabul qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan. Norelevant xarajatlarni boshqachasiga bartaraf etib bo'lmaydigan xarajatlar ham deb ataydilar [4, 474-475-betlar].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki avtomobil transporti korxonalarini xarajatlarini turli tumanligi, ularni to'g'ri tasniflanishi va hisobda to'g'ri aks ettirilishi muhim ahamiyadga ega. Avtomobil transporti korxonalarini xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarini boshqa tarmoq korxonalaridan yana bir farqi shundan iboratki, mazkur korxonalarda xarajatlarni asosiy qismi avtomobil transporti vositalari bilan bevosita bog'liq xarajatlarni tashkil qiladi, shuningdek, yo'lovchi va haydovchilarga qulaylik yaratish, transport vositalarni xavfsizligini va

yuklarni but saqlanishini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishni taqazo etadi. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni to'g'ri tasniflanishi, xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tan olinishni ta'minlashga, mazkur korxonalarini moliyaviy natijalarini to'g'ri aniqlanishiga va moliyaviy hisobotlarini ishonchli va ahamiyatli tuzilishiga, korxonaning boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Alohida ta'kidlash lozimki, avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil qilishda, ko'rsatilayotgan xizmatlarni tannarxini aniqlash jarayonida hamda ichki foydalanuvchilarga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlar yetkazib berishda buxgalteriya xizmati xodimlarining o'rni kattadir.

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, avtotransport tashkiloti faoliyatini samarali boshqarish uchun turli mezonlarga ko'ra tasniflangan avtomobil transportining haqiqiy xarajatlari va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi to'g'risida etarli va sifatli ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni tasniflanishi ularni hisobga olish jarayonini osonlashtiradi va boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlar yetkazib berish imkoniyatini yaratadi, jumladan:

Birinchidan, avtomobil transporti korxonalarini xarajatlarini to'g'ri tavsiflash buxgalteriya hisobi, hisobotning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi hamda tannarx ko'rsatkichini pasaytirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, xarajatlarni tasniflanishi avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish maqsadida buxgalteriya hisobini bir qismi bo'lgan boshqaruv hisobini tashkil etish imkoniyatini osonlashtiradi.

Uchinchidan xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratish, tahlil qilinishi avtotransport korxonalarini tomonidan mo'ljallangan foydani olish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

To'rtinchidan, xarajatlarni hisobga olish obyektiga bo'yicha tashkil qilinishi, bu xarajatlar nafaqat yurishga, balki bajarilgan ish hajmiga ham bog'liqligini ta'minlaydi va to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar tarkibini aniqlashga, shuningdek, yangi avtomobillarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishda tegishli relevant xarajatlar miqdorini aniqlashga yordam beradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonov Z.N., Misirov K.M. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019-yil, 752 b.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 475-son bilan ro'yxatga olingan.
3. Kalonov M.B., Maxkamboyev A.T., Temirov F.T. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. – Toshkent, 2021-y, 180 b.
4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. – Toshkent, 2020-y. 558 b.

5. Тхаркахова И.Г., Понокова Д.И. Формирование затрат на транспортные услуги, факторы, влияющие на себестоимость перевозок. Ежеквартальный рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ, сер. «Экономика». Выпуск 3 (225) 2018, 263-стр.

6. Kalonov M.B. O'zbekiston respublikasida transport xizmatlarini rivojlanish istiqbollari va xarajatlar hisobining nazariy asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019-yil.

7. Калинина Т.Б. Учет затрат и калькулирование себестоимости на автотранспортных предприятиях. //Экономические науки, 2013 г. 141-стр.

8. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Дарслик. – Т.: Adib, 2011. -496 б.

9. Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish (avtotransport korxonalarini misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) Dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-y.

10. Потаскаева А.И. Особенности номенклатуры расходов организаций автомобильного пассажирского транспорта. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 3 (48), 2018 | Экономические науки, 54-стр.

11. Лавриков И.Н. Экономика автомобильного транспорта. Учебное пособие. – Тамбов: Изд-во ГОУ ВПО ТГТУ, 2011. – 116 с.

12. Гелюта И.В. Собенности формирования себестоимости транспортных услуг и отражения их в учете организации в сфере транспорта. «Наука. Мысль» электронный периодический журнал. Научный журнал. № 4. – 2017 г. 109 стр.

13. <https://stat.uz/ma'lumotlaridan/olindi>.



ИҚТИСОДИЙ ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРДА ГУДВИЛНИ АКС ЭТТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Нурматов Ориф Толибжанович -

Фарғона политехника институти доценти, PhD

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a22

Аннотация: Мақолада дунё мамлакатлари иқтисодиётларининг глобаллашуви жараёнлари, бунда компаниялар бирлашуви натижасида вуждуга келадиган гудвилнинг тарихи, уни актив сифатида тан олиш, кадрсиэланнишга текшириш, қайта баҳолаш, молиявий ҳисоб ва ҳисобда акс эттириш масалалари ёритилган.

Таянч тушунчалар: глобаллашув, трансмилий компаниялар, бизнес бирлашув, қўшиб олиш, гудвилл, ҳаққоний қиймат, амортизация, кадрсиэланниш, қайта баҳолаш, молиявий ҳисоб, молиявий ҳисобот, фойда, зарар.

ВОПРОСЫ ОТРАЖЕНИЯ ГУДВИЛЛА В ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ПРОЦЕССАХ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Нурматов Ориф Толибжанович -

доцент Ферганского политехнического институти, PhD

Аннотация: В статье описаны процессы глобализации экономик стран мира, история гудвила, возникающего в результате слияния компаний, признание его в качестве актива, тестирование на предмет обесценения, переоценка, бухгалтерский учет и вопросы бухгалтерского учета.

Ключевые слова: глобализация, транснациональные компании, объединение бизнеса, приобретение, деловая репутация, справедливая стоимость, амортизация, обесценение, переоценка, финансовый счет, бухгалтерская отчетность, прибыль, убыток.

ISSUES OF REFLECTION OF GOODWILL IN FINANCIAL STATEMENTS IN THE PROCESSES OF ECONOMIC GLOBALIZATION

Nurmatov Arif Talibjanovich -

Associate Professor, Fergana Polytechnic Institute, PhD

Abstract: The article describes the processes of globalization of the economies of the world countries, the history of goodwill arising as a result of the merger of companies, its recognition as an asset, impairment testing, revaluation, financial accounting and accounting.

Key words: globalization, multinational companies, business combination, acquisition, goodwill, fair value, amortization, impairment, revaluation, financial account, financial statement, profit, loss.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг ривожланиши уни жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви жараёнларида бевосита иштирокига, хусусан юқори қийматли, якуний маҳсулот ишлаб чиқариб, халқаро савдонинг глобал таъминот занжирига қўшилишига боғлиқдир. Глобаллашув жараёнлари давлатлар, халқаро

ташкilot, хамжамият ва уюшмаларни биргаликда иқтисодий фаолликка интилиб, мамлакатлар аро савдо ҳамда инвестицион тўсиқларни олиб ташлаш, эркин савдо ҳудудларини ташкил қилиш асосида пайдо бўлади. Замонавий глобаллашувнинг асосий хусусиятлари капитал, товар ва хизматлар, ишчи кучининг эркин ҳаракати,